



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI CHAMATKOR YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONIDA BOLA OBRAZI

THE IMAGE OF THE CHILD IN THE EPIC “GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI”

Umida ABDUXALIQOVA,

ToshDO‘TAU talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ZRPD2433

Annotation. *The article discusses the images of children in the epic poem “The Birth of Gorugh”, the types of children in the epic, their connection with mythology, and the supernatural powers that manifest in them even in infancy.*

Key words: *epic, youth, birth, mythology, plot, grave, child, heroism.*

Xalq dostonlarining katta qismida bola obrazi uchraydi va yetakchi qahramon sifatida qaraladi. Dostonlarda bolaning tug‘ilishidan oldingi va keyingi davri ham alohida ahamiyatga ega. Ammo aksariyat dostonlarda bu qism tashlab ketiladi, ya’ni “Bola birdan ikkiga, ikkidan uchga, uchdan to‘rtga chiqdi” ko‘rinishida berib o‘tiladi.

Barchamizga ma’lumki, dostonlarning katta qismida asosiy qahramon erkak kishi sifatida qaraladi. Qahramonning ona qornidan boshlab umrining so‘nggi kunigacha bo‘lgan hayoti, uning ko‘rsatgan qahramonliklari va boshidan kechirgan barcha sarguzasht voqealari aynan shu obraz atrofida mujassam bo‘ladi.

Dostonlarda keluvchi bosh qahramonlar qaysidir ma’noda mifologik obraz hisoblanadi va yoshlik davridanoq boshqa bolalarga o‘xshamagan noodatiy kuchi va tashqi ko‘rinishi bilan mifologik qahramon sifatida ajralib turadi. Miflarda asosiy ko‘rinib turuvchi holat bu mubolag‘a hisoblanadi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida bola obrazi asosiy qahramon sifatida keltirilgan va ma’lum syujetlar davomida uning xarakteri ochib berilgan. Go‘ro‘g‘li go‘rda tug‘ilishining o‘zi ham mifologik holat hisoblanadi. Xalq dostonlarining katta qismini tashkil qiluvchi Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining bosh dostoni Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va bolalik davridir. Dostonning boshlanishidanoq bolalar tasviri keltiriladi:

“Yovmit yurtining Odilxon degan podshosi bor edi. Odilxon podshoning ikki o‘g‘li bo‘lib, kattasining oti Urayxon, kichkinasining oti Ahmadbek edi. Bibi Oysha degan qizi ham bor edi. Mari yurtining Qovishtixon degan xoni bor edi. Qovishtixonning To‘liboy sinchi degan bir o‘g‘li bor edi” [Гўрўғлининг туғилиши, 1967:7].

Bundan tashqari, doston davomida Ravshanbek, Gajdumbek, Bibi Hilol obrazlarining bolalik davri keltirib o‘tiladi.

Dostonda Ravshanning boshqa yurtga – ota-onasidan uzoqqa olib ketilishi ham aynan qahramonlarga xos xislat hisoblanadi. Go‘ro‘g‘lining otasi Ravshanbekning ham bolalik payti dostonda chiroyli tarzda yoritib berilgan. Ravshanni o‘g‘irlab ketishganidan keyin Hamza uni asrab oladi: “Hamza, Ravshanbekni o‘g‘il qilib olaman, deb har kuni tong otguncha uning kokilini yetti marta o‘rib, har o‘rganda mushkning suvini berar edi. Ravshanxon ham bir bola bo‘ldiki, ko‘rganlar havasda, ko‘rmaganlar armonda, kamsiz, suluv-xushro‘y” [Гўрўғлининг туғилиши, 1967:12].

Ravshanbek obrazidan so‘ng bevosita Go‘ro‘g‘li obraziga to‘xtalamiz. Dostonda yetakchi obraz sifatida keltirilgan ushbu qahramonning bolalik davri dostonda yetarlicha yoritib berilgan. Tug‘ilishining bashorat qilinishi, homiy eranlar panohida bo‘lishi kabi alplik tizimida ketma-ketliklar mavjudligi aynan uning tanlangan qahramon ekanligidan dalolat beradi. Boshqa bolalardan farqi shundaki, u go‘rda tug‘iladi, tug‘ilish jarayoni dostonda shunday yoritiladi: “Bibi Hilolning o‘lganiga uch oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat, to‘qqiz daqiqa o‘tdi. Ravshanbekdan olti oylik gumona qolgan edi. Bibi Hilol o‘lgan bo‘lsa ham bolasi o‘lmagan ekan. Shunda vaqt yetdi. Tug‘moqchi bo‘ldi. Bibi Hilolning o‘ligi go‘rda tebrandi. O‘lik badanini to‘lg‘oq tutdi:

*Hilolning tanasi go'rdagi tebrandi,
Endi tutdi Hiloloyning to'lg'og'i.
Mavj urib misli bir daryoday toshdi,
Hoy attang-a, dardlar-dardga ulashdi.
Chaqaloq qimirlab ena qornida,
Hiloloyning farzandi go'rga tushdi.*

*Bachchaning yuzining oydinligiga,
Barq urib, go'r yop-yorug' bo'ldi.
Bibi Hilol bir nozanin ul tug'di.
Uch kecha, uch kunduz oradan o'tdi...*

Hiloloyga jon kelmadi, lekin bolaga emchagidan sut kelib yotdi. Shu orada o'rtadan uch yil o'tdi. Go'ro'g'li tug'ilgandan beri go'rdagi chiroq yonib turar edi" [Гўрўғлининг туғилиши, 1967:51].

Boshqa o'zbek xalq dostonlaridagi bola obrazlarining bu ko'rinishda kelganini uchratmaymiz. Uning ajralib turuvchi xislati ham aynan mana shunda. Bundan tashqari, chaqaloq bo'lishiga qaramay ulkan sherni homiy obraz yordamida urib o'ldirishi uning xarakterini ochib beradi. Dostonda Go'ro'g'lining tashqi ko'rinishi ham alohida ta'riflanadi: "Bizlar yap-yalang'och bir arvochni ko'rdik. O'zi yosh bachchaga o'xshaydi", "Shunda bir bola Bibi Hilolning go'ridan chiqdi, juda suluv, quvi o'n to'rt kunlik oyga o'xshaydi" [Гўрўғлининг туғилиши, 1967:53].

So'ngra dostonida uning qiz yoki o'g'il bola ekanligini bilish uchun go'rnig bir tomoniga ikkita qo'g'irchoq va ro'mol, ikkinchi tomoniga egar bilan uch oshiqni qo'yadi. "Go'ro'g'li go'rdan chiqib, ro'mollarga ko'zi tushib, ro'mollarni, qo'g'irchoqlarni yirtadi. Ro'moldan har xil-har xil bayroqlar qildi... ..Egarni minib, "chuv-ha, chuv-ha, ot qo'y, qaytma, boxabar bo'linglar", – deb go'rdan ancha yerga uzoqlab ketdi" [Гўрўғлининг туғилиши, 1967:54]. Birinchi marta ko'rgan buyumini – ot egarini olib, uni qay holatda foydalanishni bilishi, o'ynash chog'idanoq uning alp ekanligini bilib olish mumkin. Syujet davomida Go'ro'g'lining uch yoshlik davri, shu vaqt mobaynida o'zi qatori bolalarni urgani va qulog'ini yulib olgani keltirib o'tiladi. Ayni shu voqealarning o'zida ham uning boshqa bolalarga o'xshamaydigan kuchga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. So'ngra voqealar rivoji qahramonning yetti yoshga to'lgan vaqtidan boshlanadi. Ayni shu vaqtda esa unda safar motivi boshlanadi. Sarguzashtlari davomida savodi chiqqanligi aytib o'tiladi. So'ngra o'n ikki yoshga kiradi. Shu tariqa bolalik davri yakunlanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, dostonlardagi bolalalik davrlari aksariyat qahramonlarda qiyin kechadi. Qahramonning qahramon bo'lishi uchun hayotda turli sinovlarni yengib o'tishni o'rganishi, ko'nikmalar olishi ham ayni bolalik davrida shakllanadi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi bolalarning turlari, ya'ni g'aroyib kuchga ega tanlangan bolalar va hamma qatori bo'lgan ikki toifa vakillarning kelishi ham fikrimizning yaqqol isboti bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Po'ltan baxshi varianti. – Toshkent. Yangiyo'l Poligraph Service, 2019.
2. Ismonova Y. Hozirgi o'zbek romanlarida bola obrazining poetik funksiyasi: Filol. Fan. Bo'yicha fals. D-ri (PhD) ... diss. – Toshkent, 2025.
3. Гўрўғлининг туғилиши. Пулкан бахши варианты. – Тошкент: Фан, 1967.